

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/04.06.2021.Fil.72.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI**

**BOZOROV ORIF CHAMANOVICH**

**EPISTOLYAR ROMANDA VOQELIKNI BADIY TASVIRLASH  
IMKONIYATLARI VA QAHRAMON MUAMMOSI (IOGANN  
VOLFGANG FON GYOTENING “YOSH VERTERNING IZTIROBLARI”  
HAMDA IQBOL MIRZONING “BONU” ROMANLARI MISOLIDA)**

**10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik**

**FILOLOGIYA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi  
Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по филологическим наукам  
The contents of dissertation abstract for a Doctor of Philosophy (PhD) in Philological sciences

**Bozorov Orif Chamanovich**

Epistolyar romanda voqelikni badiiy tasvirlash imkoniyatlari va qahramon muammosi (Iogann Volfgang fon Gyotening “Yosh Verterning iztiroblari” hamda Iqbol Mirzoning “Bonu” romanlari misolida)..... 5

**Бозоров Ориф Чаманович**

Возможности художественного изображения действительности и проблематика героя в эпистолярном романе (на примере романов Иогана Вольфгана фон Гёте “Страдания молодого Вертера” и Икбола Мирзо “Бону”)..... 23

**Bozorov Orif Chamanovich**

Possibilities of artistic representation of reality and the problem of the hero in the epistolary novel (in the examples of Johann Wolfgang von Goethe’s “The Sufferings of Young Werther” and “Bonu” by Iqbol Mirzo) ..... 45

**E'lon qilingan ishlar ro'uxati**

Список опубликованных работ

List of published works ..... 49

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/04.06.2021.Fil.72.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI**

**BOZOROV ORIF CHAMANOVICH**

**EPISTOLYAR ROMANDA VOQELIKNI BADIY TASVIRLASH  
IMKONIYATLARI VA QAHRAMON MUAMMOSI (IOGANN  
VOLFGANG FON GYOTENING “YOSH VERTERNING IZTIROBLARI”  
HAMDA IQBOL MIRZONING “BONU” ROMANLARI MISOLIDA)**

**10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik**

**FILOLOGIYA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida №B2022.1.PhD/Fil2243 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Qarshi davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.buxdu.uz) va "Ziyonet" Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:** **G'aniyev Ilxom Muzafarovich**  
filologiya fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:** **Murodov G'ayrat Nekovich**  
filologiya fanlari doktori, professor

**Jumaniyozov Zoxid Otaboyevich**  
filologiya fanlari nomzodi, dotsent

**Yetakchi tashkilot:** **Jizzax davlat pedagogika instituti**

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi DSc.03/04.06.2021.Fil.72.03 raqamli Ilmiy kengashning 2023-yil « 15 » may soat 11<sup>00</sup> dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 200118, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (0 365) 221-29-14; faks: (0 365) 221-57-27; e-mail: buxdu\_rektor@buxdu.uz)

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (296 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 200118, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (0 365) 221-25-87.)

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil « 02 » - may kuni tarqatildi.

(2023-yil « 02 » may dagi №23-15 - raqamli reestr bayonnomasi.)



**D.S.O'rayeva**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi,  
filologiya fanlari doktori, professor

**Z.I.Rasulov**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy  
kotibi, filologiya fanlari doktori, dotsent

**M.M.Jo'rayeva**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi  
ilmiy seminar raisi, filologiya fanlari doktori,  
professor

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon adabiyotshunosligida XVIII-XX asr badiiy nasriy roman janri tipologiyasi shakllanishida maktub shaklida romanlar yozish, epistolyar adabiyotning tarixiy hikoya, oilaviy xronika tarzida rivoj topishi, ayniqsa, ikkinchi jahon urushi yillarida maktub shaklidagi epistolyar adabiyot muhim ahamiyatga ega bo‘lib kelgan. Roman janrining xilma-xilligi, rivoji, tuzilishining epik-dramatik xususiyatlari muayyan tipologik alomatlarga ega bo‘la boshlagan Yevropa nasriy romannavisligida epistolyar asar yaratish tajribasining markaziy mavqe egallashiga sabab bo‘lgan omillar interpretatsiyasi alohida ahamiyat kasb etadi. Zero, tarixiy burilish davri adabiyoti va san’ati voqelantirgan roman janri tipologiyasining xolistik tahlilga tortilishi turli ijtimoiy-tarixiy qarashlarning to‘qnashuvi, adabiy vaziyatning shartlilik va metaforikligi, shakl va mazmun yaxlitligini tashkil etadigan poetik tizim va janraro munosabatni ilmiy talqin etishga imkon yaratadi.

Dunyo adabiyotshunosligida epistolyar asarlar, jumladan, romanlarni badiiy adabiyotning san’at turi sifatidagi imkoniyatlari, undagi voqelikni badiiy tasvirlash, g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari, roman estetikasida xarakter masalasi, badiiy konfliktning hayotiy ziddiyatlar aksi sifatidagi talqiniga doir keng ko‘lamli izlanishlar olib borilgan. Shu doiradagi ilmiy tadqiqotlar epistolyar janr ijodkorga tarixiy-ijtimoiy, maishiy voqelikni individual rakursdan yoritish, tarixiy voqelikka alohida olingan qahramon taqdiri va nuqtai nazaridan baho berish, inson ruhiyatini nihoyatda chuqur ochishga imkon berishini, dunyo adabiyotshunosligida shoir yoki yozuvchilarning o‘zaro yozishmalari, epistolyar asarlarning tipologik mohiyatini, ijtimoiy-kontseptual bog‘lanishlarni, tadrijiy taraqqiyotini, ustuvor poetik alomatlar, obrazli strukturalar va tipiklashtirish qonuniyatlarini ilmiy tadqiq etish milliy adabiyotda rang-barang shakllar rivoji tamoyillarini aniqlashda muhim ilmiy-nazariy ahamiyat kasb etadi.

Milliy adabiyotimizda esa epistolyar romanning ilk namunasi A.Ibrohimov tomonidan yozilgan bo‘lsa, ikkinchi shunday asar Iqbol Mirzo tomonidan yaratildi. Muhim jihati shundaki, Gyote ham, Iqbol Mirzo ham shoir hisoblanadi – mana shu holat ham bu ikki romanda mushtarak jihatlarni keltirib chiqargan. Yuqoridagilarga ko‘ra ham mazkur tadqiqot mavzui dolzarb hisoblanadi. O‘zbek adabiyoti mustaqillik yillarida jahon adabiyoti bilan uyg‘unlashuv borasida o‘z taraqqiyotining yangi bosqichiga ko‘tarildi. Milliy adabiyot namunalarini jahon adabiyoti asarlari bilan adabiy ta’sir, adabiy mushtaraklik, tipologik o‘xshashlik va tarjima yo‘nalishida qiyosiy tadqiq etish jarayoni kuchaydi. Ijodkorlar va adabiyotshunoslar tomonidan olib borilayotgan bu faoliyat O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning “...adabiyot va san’atga, madaniyatga e’tibor – bu avvalo, xalqimizga e’tibor, kelajagimizga e’tibor ekanini, buyuk shoirimiz Cho‘lpon aytganidek, adabiyot va madaniyat yashasa, millat yashashi mumkinligini unutishga bizning aslo haqqimiz yo‘q”<sup>1</sup> degan fikrlariga hamohang.

---

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг “Адабиёт ва санъат, маданиятни ривожлантириш – халқимиз маънавий оламини юксалтиришнинг мустаҳкам пойдеворидир”. Ўзбекистон ижодкор зиёлилари вакиллари билан учрашувдаги маърузаси // Халқ сўзи. 2017 йил, 4 август.

Milliy adabiyot namunalarini jahon adabiyoti durdonalari bilan qiyosan tadqiq etish zarurati ana shunday ijtimoiy-ma'rifiy ehtiyoj bilan ham belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi PF-5850-son "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqei tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmonlari, 2017-yil 17-fevraldagi PQ-2789-son "Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari, Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 18-maydagi 376-son "Jahon adabiyotining eng sara namunalarini o'zbek tiliga hamda o'zbek adabiyoti durdonalarini chet tillariga tarjima qilish va nashr etish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Jahon adabiyotida badiiy epistolyar asarlar yaratish tajribasi uzoq taraqqiyot yo'lini bosib o'tdi; shunga ko'ra, bu xildagi asarlarga oid ilmiy tadqiqotlar ham anchagina.<sup>2</sup> Rus adabiyotida ham A.Pushkinning "Maktub-roman", F.Dostoyevskiyning "Bechora odamlar", I.Turgenevning "Yozishma" kabi badiiy epistolyar adabiyotning mukammal namunalarini uchratish mumkin. Rus adabiyotshunosligida, badiiy epistolyar asarlar genezisi akademik D.Lixachyov tomonidan o'rganilgan.<sup>3</sup> Shuningdek, epistolyar romanning atributi bo'lmish dialogizmga oid qarashlar M.Baxtin, N.Tamarchenko, Y.Tinyanov kabi romanshunoslar ishlarida uchraydi.<sup>4</sup>

---

<sup>2</sup> Rousset J. Une forme litteraire: le roman par lettres // Rousset J. Forme et Signification. Essais sur les structures litteraires de Corneille a Claudel. — Paris, 1962. — P. 65-108; Romberg B. Studies in the Narrative Technique of the First-Person Novel / Trans. M. Taylor and H. H. Borland. — Stockholm, 1962. — P. 46-55; Mylnc Г. The Eighteenth-Century French Novel: Techniques of Illusion. — Manchester, 1965; Todorov T. Litterature et Signification. — Paris, 1967; Versini L. Le Roman epistolaire. — Paris, 1979; Altaian J. G. Epistolarity: Approaches to a Form. — Columbus: Ohio State U. P., 1982; Duyjhuizen B. Epistolar Narration of Transmission and Transpassion // Comparative literature. — 1985. V. 37. № 1. — P. 1-26; Colas F. Le Roman epistolaire. — Paris, 1996; Gra.v.v, d/. C. Lire l'epistolaire. — P., 1998.

<sup>3</sup> Лихачев Д. Великое наследие. — М., 1975; Лихачев Д. Литература времени национального подъема / Памятники литературы Древней Руси. XIУ-середина XV века. — М., "Художлит", 1981; Лихачев Д. На пути к новому литературному сознанию / Памятники литературы Древней Руси. Вторая половина XVІ века. — М., "Художлит", 1986; Лихачев Д. Развитие русской литературы X-XVІІ веков. — Л., "Наука", 1973.

<sup>4</sup> Виноградова Е. Эпистолярные речевые жанры: прагматика и семантика текста: автореф. Канд.дисс. — М., 1991; Вольперт Л. Историзм "истинного романтизма" ранней прозы Стендаля и Пушкина ("Арманс" и "Роман в письмах") // Уч. Зап. Тартусского гос. ун-та Вып.792. Труды по романо-германской филол. 1988. С.157-167; Елина Е. Эпистолярные формы в русской литературе 60-х годов XIX века // Живые страницы. Из истории и теории литературы. Сб.статей. Изд-во Саратовского унив., 1978; Елистратова А. Эпистолярная проза романтиков // Европейский романтизм. — М., Наука, 1973; Лазарчук Р. Проза Радищева и традиция

Dissertatsiya uchun obyekt sifatida tanlangan “Yosh Verterning iztiroblari” romani o‘z davridayoq juda mashhur bo‘lgan, qayta-qayta chop etilgan, ayrim sabablarga ko‘ra ta‘qiqlab ham qo‘yilgan. Ammo tadqiqotchilarning kuzatishlariga ko‘ra, asarni chuqur ilmiy tadqiq etilishi XX asrga to‘g‘ri keladi; bu davrda, asarni ayniqsa psixologik, psixoanalitik jihatdan tadqiq etish kuchaydi; ayrim tadqiqotchilar hatto asarni Injilga, Verter obrazini Iso(a.s)ga qiyosan o‘rganishga ham harakat qildilar.<sup>5</sup>

Milliy adabiyotshunosligimizda roman janriga oid talay tadqiqotlar yaratilgan,<sup>6</sup> badiiy epistolyar adabiyotga oid ma‘lumotlar esa faqat adabiyotshunoslik lug‘atlarida uchraydi.<sup>7</sup> Shuningdek, faqat badiiy epistolyar asarlar emas, umuman, epistolyar adabiyotga oid ayrim ishlar amalga oshirilgan.<sup>8</sup>

Iqbol Mirzoning “Bonu” romani esa milliy adabiyotimiz uchun butunlay yangilikdir. To‘g‘ri, mumtoz adabiyotimizda munshaotlar bo‘lgan, hatto Alisher Navoiy munshaotlari alohida to‘plam holiga keltirilgan, ilmiy tadqiq etilgan.<sup>9</sup> Bundan tashqari, zamonaviy o‘zbek nasrida ham epistolyar asarning bosh elementi bo‘lmish maktublar, yozishmalar uchrab turadi. A.Qodiriyning “O‘tgan kunlar” romanidagi maktublar buning yorqin misolidir. Ammo faqat maktubga asoslangan

---

эпистолярного жан-ра // Сб. “XV111 век”, №12. – Л., Наука, 1977; Логунова Н. Эпистолярный жанр в творчестве Д.И. Фонвизина. “Записки первого путешествия” // Сборник научных работ аспирантов и молодых преподавателей. – Ростов н/Д., Изд-во РГПУ, 1998. – Часть 2: Филология

<sup>5</sup> Alexander L.-H. Der wahre Werther. Hamburg; Wien, 1959; Rothmann. K. Erläuterungen und Dokumente zu Johann Wolfgang Goethe: Die Leiden des jungen Werthers. Stuttgart, 1971; Welz D. Der Weimarer Werther. Studien zur Sinnstruktur der zweiten Fassung des Werther-Romans. Bonn. 1973; Lange V. Die Sprache als Erzählform in Goethes Werther // Formwandel. Festschrift zum 65. Geb. Von Paul Böckmann. Hamurg, 1964. S. 261-272; Lukács G. Die Leiden des jungen Werther (1936) // Lukács G. Deutsche Literatur in zwei Jahrhunderten (Werke, Bd. 7). Neuwied, 1964. S. 57; Scherpe K.R. Werther und Wertherwirkung. Zum Syndrom bürgerlicher Gesellschaftsordnung im 18. Jahrhundert. Bad Homburg, Berlin, Zürich, 1970. S. 31; Jäger G. Die Leiden des jungen Werther. Kommentare, Abbildungen, Materialien zu Die Leiden des jungen Werthers und Plenzdorfs Neuen Leiden des jungen W. Wien. 1984. S. 15; Jauß H.R. Ästhetische Erfahrung und literarische Hermeneutik. Versuche im Feld der ästhetischen Erfahrung. München, 1977. S. 589; Kaempfer W. Das Ich und der Tod in Goethes Werther // Recherches Germaniques. №. 9. 1979. S. 55-79; Schmiedt H. Woran scheitert Werther? // Poetica. Zeitschrift für Sprach- und Literaturwissenschaft. Bd. II. 1979. S. 90-100; Meyer-Kalkus R. Werthers Krankheit zum Tode. Pathologie und Familie in der Empfindsamkeit // Urszenen. Literaturwissenschaft als Diskursanalyse und Diskurskritik. Frankfurt a. M., 1977. S. 76-138; Wagenknecht Ch. Werthers Leiden. Der Roman als Krankheitsgeschichte // Text & Kontext 5, H. 2. 1977. S. 3-14.

<sup>6</sup> Раҳимов А. Ўзбек романи поэтикаси (сюжет ва конфликт): Филол. фан. д-ри ... дисс. – Тошкент, 1993; Тўраев Д. Ҳозирги ўзбек романларида бадий тафаккур ва маҳорат муаммоси (60–80-йиллар): Филол. фан. д-ри ... дисс. – Тошкент, 1994; Пардаева З. Ҳозирги ўзбек романчилигининг тараққиёт тамойиллари: Филол. фан. д-ри ... дисс. – Тошкент, 2003; Дониёрова Ш. Истиклол даври ўзбек романларида миллий рух ва қаҳрамон муаммоси: Филол. фан. д-ри ... дисс. – Тошкент, 2012; Якубов И. Мустақиллик даври ўзбек романлари поэтикаси: филология фанлари бўйича фан доктори (DSc) диссертацияси автореферати. – Тошкент, 2018; Исаева Ш. Ўзбек тарихий романларида характер руҳиятини тасвирлаш усуллари: Филол. фан. номз... дисс. – Тошкент, 2001.

<sup>7</sup> Хотамов Н., Саримсоқов Б. Адабиётшунослик терминларининг русча-ўзбекча изоҳли луғати. – Т., Ўқитувчи, 1979. – 353-б.; Қуронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. – Т., Akademnashr, 2013.

<sup>8</sup> Каримов Ш. Шиллер ва унинг эпистоляр мероси // Жаҳон адабиёти, 2014 йил, 11-сон; Жўраев Т. Ҳозирги ўзбек адабий тилида эпистоляр жанрнинг тил ва услубий хусусиятлари. – филол.фанл.номз.... дисс.автореф. – Самарқанд, 1994; Мусурмонов Э. Нобель мукофоти лауреати Мо Ёань ёхуд эртақ ва ҳақиқат қоришган адабиётнинг муфаллақиятли бўлиши хусусида // <https://kh-davron.uz/kutubxona/jahon/erkin-musurmanov-mo-yan-xususida.html>

<sup>9</sup> Эргашев Қ. Ўзбек насрида иншо (Навоий “Муншаот”и мисолида): ф.ф.н дисс. – Тошкент, 1996. – 145 б.; Турсунов Ю. “Муншаот” как историко-литературный источник в изучении жизни деятельности Алишера Навои: Автореф. ... дисс. канд. фил.наук. –Ташкент, 1986. – 21 б.

epistolyar roman milliy adabiyotimizda ko‘p emas. Uning ilk namunasi 2001 yilda yozuvchi A.Ibrohimov tomonidan yaratildi.<sup>10</sup> 2016 yilda esa shoir Iqbol Mirzo tomonidan “Bonu” romani e‘lon qilindi, bu asar hozirgacha alohida tadqiqot obyekti bo‘lgan emas.

Ishda I.Sulton, M.Qo‘shjonov, O.Sharafiddinov, U.Normatov, A.Rasulov, B.Nazarov, H.Boltaboyev, D.Quronov, B.Karimov, U.Jo‘raqulov kabi o‘zbek<sup>11</sup>; V.Jirmunskiy, V.Vinogradov, R.Bart, M.Baxtin, Y.Borev, M.Xrapchenko, L.Chernets, A.Kuzmin, G.Pospelov, V.Xalizev<sup>12</sup> kabi jahon olimlarining ishlaridan nazariy asos sifatida foydalanildi.

**Dissertatsiya tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.** Dissertatsiya mavzusi Qarshi davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining 2017-2021 yillarga mo‘ljallangan “Xorijiy adabiyotshunoslik va tarjimashunoslikning dolzarb muammolari” mavzusi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** nemis mutafakkiri Iogann Volfgang fon Gyotening “Yosh Verterning iztiroblari” va o‘zbek adibi Iqbol Mirzoning “Bonu” romanlari qiyosiy-tipologik tadqiqi orqali epistolyar roman janrida ijtimoiy-tarixiy voqelikni badiiy tasvirlash imkoniyatlarini ilmiy tadqiq etish orqali milliy adabiyotda romanning mazkur shakli istiqbolini aniqlashdan iborat.

#### **Tadqiqotning vazifalari:**

epistolyar roman genezisi va jahon hamda o‘zbek adabiyotida epistolyar roman taraqqiyotini tadqiq etish;

epistolyar romanda tarixiy-ijtimoiy voqelik tasvirining o‘ziga xosligini aniqlash hamda xronotop muammosini tadqiq etish;

“Yosh Verterning iztiroblari” va “Bonu” romanlarida muhabbat va yolg‘izlik motivi hamda psixologizm muammosini qiyosiy o‘rganish;

epistolyar romanda bosh qahramon muammosini qiyosiy o‘rganish;

adresat-qahramonni roman qahramonining yangi tipi sifatida tavsiflash.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida Iogann Volfgang fon Gyotening “Yosh Verterning iztiroblari” va o‘zbek adibi Iqbol Mirzoning “Bonu” romanlari tanlangan.

---

<sup>10</sup> Иброҳимов А. Уйқу келмас кечалар. – Т., Шарқ, 2001. – 240 б.

<sup>11</sup> Султон И. Адабиёт назарияси. – Т.: Ўқитувчи, 1986; Қўшжонов М. Сайланма. – Т.: Шарқ, 2018; Шарафиддинов О. Ижодни англаш бахти. – Т.: Шарқ, 2004; Норматов У. Ижод сеҳри. – Т.: Шарқ, 2007; Расулов А. Танқид, талқин, баҳолаш. – Т.: Фан, 2006; Назаров Б. Ҳаётийлик – безавол мезон. – Т.: Ўқитувчи, 1983; Болтабоев Х. Наср ва услуб. – Т.: Фан, 1992; Қуронов Д. Адабиётшуносликка кириш. – Андижон, Ҳаёт, 2002; Каримов Б. Адабиётшунослик методологияси. – Т.: Мухаррир, 2011; Жўрақулов У. Назарий поэтика масалалари: муаллиф, жанр, хронотоп. – Т.: Фафур Ғулом номидаги нашриёт матбаа ижодий уйи, 2015.

<sup>12</sup> Храпченко М.Б. Творческая индивидуальность писателя и развитие литературы. – М.: Наука, 1970. – 266 с.; Бахтин М.М. Проблемы поэтики Достоевского. – М.: Наука, 1979. – 85 с.; Бахтин М.М. Проблемы поэтики Достоевского. – М.: Наука, 1973. – 207 с.; Бахтин М.М. Эстетика словесного творчества. – М.: Наука, 1979. – 422 с.; Рикёр П. Герменевтика. Этика. Политика: Московские лекции и интервью. – М.: 1995. – С. 78-196; Барт Р. Введение в структурный анализ повествовательных текстов// Зарубежная эстетика и теория литературы XIX–XX вв.: Трактаты. Статьи Эссе. – М.: 1987. – 407 с.; Виноградов В.В. Поэтика русской литературы. – М.: Наука, 1976. – 484 с.; Жирмунский В.М. Теория литературы. Поэтика. Стилистика. – Л.: Наука, 1977. – 404 с.; Лукич Д. Теория романа. – Варшава, 1963. – 229 с.; Боров Ю. Искусство интерпретации и оценки. – М.: Советский писатель, 1981; Пospelov Г. Теория литературы. – М.: Высшая школа, 1978; Хализев В. Теория литературы. – М.: Высшая школа, 1999.

**Tadqiqotning predmetini** epistolyar romanlarda hayot voqeligini badiiy tasvirlash imkoniyatlarini belgilash hamda qahramon muammosi tadqiqi tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertatsiyaning maqsadidan kelib chiqib, ishda qiyosiy-tipologik, analitik, germenevtik, intertekstual, funksional-interpretatsion, va psixoanalitik metodlardan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

epistolyar roman janrining poetik yaxlitligi maktub, nomalar shakli, epizodlardagi uyg'unlik, suhbat shakli, vaqtlarning qorishishi, nutq qatlamlari, turli ijtimoiy-tarixiy qarashlar to'qnashuvi, vaziyatning shartlilik va metaforik mohiyati, poetik chekinishlar kabi shakl unsurlarining mazmunga mutanosibligida voqelanishi aniqlangan;

nemis mutafakkiri Iogann Volfgang fon Gyote va o'zbek xalq shoiri Iqbol Mirzo ijodiy davrlarining yuksalish, kul'minatsiya va pasayish bosqichlari real zamon va makon universumida ijtimoiy-siyosiy holat, ijodkorlarning shaxsiy dunyoqarashidagi fitriy va mohiyatan o'zgarishlar kabi omillar ta'sirida asarlarda tasvirlangan muhabbat, fidoyilik, yolg'izlik va xudkushlik motivlari, uning oqibatlarini ifodalash orqali shartlanishi asoslangan;

epistolyar asar yozuvchilarining o'z ijodida epistolyar elementlardan foydalanish mahoratidagi mushtarak jihatlar hayot/o'lim, muhabbat/iztirob, do'stlik/xiyonat, haqiqat/yolg'on, ishonch/ishonchsizlik kabi binar oppozitsiyali syujetlar va kompozitsiyalar yaratishda namoyon bo'lishi isbotlangan;

epistolyar romani kompozitsion shaklining maktub-noma strukturaga moyilligi roman kompozitsiyasi, ishq-muhabbat mavzui markaziy o'rin tutishi, lirik-poetik uslubning qo'llanishi, afsonaviy va so'fiy oshiqlarga xos junun, fidoyilik, hissiyotlarining alohida ta'kidlanishi, umumiy qonuniyatlar asosida shakllanishi va rivojlanishi bilan belgilanganligi dalillangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

XVIII asr Yevropa va nemis ma'rifatparvarlik adabiyotining nazariy masalalari, Gyote ijodining o'rganilishi, asarlarining rus va o'zbekcha nashrlarini aslyat bilan qiyoslash natijalari jahon adabiyoti durdonalari bilan bevosita tanishish imkonini bergan;

o'rganilgan asarlarda G'arb va Sharqdagi odob-ahloq mezonlari, xalqlar madaniyatining o'tmishi, islom tamadduni va islomga oid ta'limotning mazmun-mohiyati, diniy bag'rikenglik, inson tasviri, shaxsning ma'naviy dunyoqarashi haqidagi fikrlar, inson ijtimoiy ongiga xos xususiyatlar ochib berilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** dissertatsiyada muammoning aniq yondashuv usullari, nazariy ma'lumotlarning ilmiy va badiiy manbalardan olingani, OAK ro'yxatidagi maxsus jurnallar hamda xorijiy ilmiy jurnallarda chop etilgan maqolalar, chiqarilgan xulosalarning qiyosiy-tarixiy, qiyosiy-tipologik, analitik, germenevtik, intertekstual, funksional-interpretatsion, va psixoanalitik kabi tahlil usullar bilan asoslangani, aslyat manbalarining izohlarda ko'rsatilganligi, xulosa, tavsiyalarning amaliyotda joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.**

Jamiyat taraqqiyoti uchun ham, badiiy adabiyot uchun ham g'oyat muhim va global muammo sanalmish jamiyat konsepsiyasini, shuningdek, shu mavzuning badiiy talqinida ko'pqatlamli tasvir dialektikasini nemis va o'zbek adabiyoti materialida fundamental tadqiq etishga bag'ishlangan ushbu dissertatsiyaning asosiy tahliliy xulosalari ushbu muammoni qiyosiy o'rganishda o'ziga xos nazariy ahamiyat kasb etishida, chiqarilgan ilmiy xulosalar o'zbek adabiyotshunosligi fanining taraqqiyot tamoyillarini belgilashda, uning o'ziga xos nazariy yo'nalishini aniqlash uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Ishda keltirilgan dalillar, nazariy fikr-mulohazalardan o'zbek-nemis adabiyoti va adabiyotshunosligi hamkorligi va aloqalari ilmiy tarixini o'rganishda, oliy o'quv yurtlari filologiya fakultetlarida tarjimashunoslik fanlarini o'qitishda, shu fanlar bo'yicha darsliklar, o'quv qo'llanmalari va dasturlar tuzishda, nemis tili darsi mashg'ulotlarida, o'zbek-nemis adabiy-madaniy aloqalari tarixidan ilmiy izlanishlar olib borish, maxsus kurs va seminarlar tashkil etishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Epistolyar romanda voqelikni badiiy tasvirlash imkoniyatlari va qahramon muammosini aniqlash bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

epistolyar roman janri poetik yaxlitligi maktub, nomalar shakli, epizodlardagi uyg'unlik, suhbat shakli, vaqtlarning qorishishi, nutq qatlamlari, turli ijtimoiy-tarixiy qarashlar to'qnashuvi, vaziyatning shartliliigi va metaforik mohiyati, poetik chekinishlar kabi shakl unsurlarining mazmunga mutanosibligida namoyon bo'lishiga oid nazariy xulosalardan Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy tadqiqot institutida bajarilgan FA-F1-G003 "Hozirgi qoraqalpoq tilida funksional so'z yasalishi"; FA-F1-G007 "Qoraqalpoq naql-maqollari lingvistik tadqiqot obyekti sifatida" mavzusidagi fundamental va ilmiy-amaliy loyihalarni bajarishda foydalanilgan (O'zbekiston Fanlar Akademiyasi Qoraqalpog'iston bo'limining 2022-yil 17-martdagi №17.01/60-son ma'lumotnomasi). Natijada epistolyar roman genezisi va jahon hamda o'zbek adabiyotida epistolyar roman kelib chiqish asoslari, xususiyat va jihatlarini ochib berishga erishilgan;

nemis mutafakkiri Iogann Volfgang fon Gyote va o'zbek xalq shoiri Iqbol Mirzo ijodiy davrlarining yuksalish, kul'minatsiya va pasayish bosqichlari real zamon va makon universumida ijtimoiy-siyosiy holat, ijodkorlarning shaxsiy dunyoqarashidagi fitriy va mohiyatan o'zgarishlar kabi omillar ta'sirida asarlarda tasvirlangan muhabbat, fidoyilik, yolg'izlik va xudkushlik motivlari, uning oqibatlarini ifodalash orqali shartlanishiga oid nazariy xulosalaridan Qarshi davlat universitetida 2007-2011 yillarda bajarilgan OT-F8-022 raqamli "Hozirgi zamon sivilizatsiyasining inson ijtimoiy qiyofasiga ta'siri" mavzusidagi fundamental va ilmiy-amaliy loyihalarni bajarishda foydalanilgan (Qarshi davlat universitetining 2022-yil 1-apreldagi №04/1503-son ma'lumotnomasi). Natijada turli xil tarixiy davrda, turlicha milliy-madaniy kontekstda yashab, ham she'riyat, ham nasr yo'nalishida ijod etgan ikki shoir-adib romanlarini tadqiq etish orqali epistolyar roman janrida voqelikni badiiy tasvirlash imkoniyatlari ochib berilgan;

epistolyar asar yozuvchilarining o'z ijodida epistolyar elementlardan foydalanish mahoratidagi mushtarak jihatlar hayot/o'lim, muhabbat/iztirob,

do'stlik/xiyonat, haqiqat/yolg'on, ishonch/ishonchsizlik kabi binar oppozitsiyali syujetlar, kompozitsiyalar yaratishda namoyon bo'lishiga oid ilmiy natijalardan O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Qashqadaryo viloyat bo'limida 2018-2019 yillarda bajarilgan 54-10/104 raqamli "Mitti yulduz jilolari yoxud Abdulla Oripov izdoshlari huzurida" mavzusidagi loyiha ishini bajarishda foydalanilgan (O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasining 2022-yil 22-noyabrdagi №01-03/1472-son ma'lumotnomasi). Natijada nemis mutafakkiri Iogann Volfgang fon Gyote va O'zbekiston xalq shoiri Iqbol Mirzo romanlari qiyosiy-tipologik yo'nalishda fundamental ilmiy tadqiq etish orqali milliy adabiyotshunoslikda epistolyar roman janr sifatida tavsiflangan, epistolyar romanning jahon va milliy nasr taraqqiyotida tutgan o'rni dalillangan;

epistolyar romani kompozitsion shaklining maktub-noma strukturaga moyilligi roman kompozitsiyasi, ishq-muhabbat mavzui markaziy o'rin tutishi, lirik-poetik uslubning qo'llanishi, afsonaviy va so'fiy oshiqlarga xos junun, fidoyilik, hissiyotlarining alohida ta'kidlanishi, umumiy qonuniyatlar asosida shakllanishi va rivojlanishi bilan belgilanganligi bilan bog'liq xulosa va natijalardan Qarshi teleradiokanalidagi "Nasaf TV" kanalining "Taqdimot" teleko'rsatuvi senariysini tayyorlashda foydalanilgan (Qarshi teleradiokanalining 2022-yil 12-fevraldagi №026-son ma'lumotnomasi). Natijada teletomoshabin va radiotinglovchilarga Epistolyar romanda ijtimoiy-tarixiy voqelikni badiiy tasvir etishning o'ziga xosligi qahramon muammosini tadqiq etish orqali ochib berilishi, "Yosh Verterning iztiroblari" va "Bonu" asarlari materialida adresatning roman qahramoni sifatidagi o'ziga xosligi haqida ma'lumotlar orqali teleko'rsatuv va radioeshittirishlar saviyasining oshirilishiga xizmat qilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari 6 ta, jumladan, 4 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 15 ta ilmiy ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy jurnallarda 7 ta maqola, ulardan, 5 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan tashkil topgan bo'lib, umumiy hajmi 133 sahifani tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, maqsadi va vazifalari, obyekt va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi “**Epistolyar roman – epik janr sifatida**” deb nomlangan. Bobning fasllarida epistolyar roman yoki umuman epistolyar janr zamonaviy adabiyotshunoslikda xatlar asosida yozilgan asarlar tushunchasi izohlangan. Epistolyar – yunoncha so‘z (epistole) bo‘lib, xat, xabar degan ma‘noni bildiradi. Xat orqali muloqot qilish hali yozuv paydo bo‘lmagan davrlardayoq amalda bo‘lgan. “Bunga misol sifatida skiflar shohi Idanfrisning eroniylarga yuborgan buyumlar — kamon o‘qi, baqa, sichqon va qushdan iborat o‘ziga xos “xat”ini eslash kifoya. Bunday “xat”larning tarixi juda qadimiydir”.<sup>13</sup> Manbalarga ko‘ra, epistolyar yozuvlarning ilk namunasi qadimgi yunon faylasufi Epikur tomonidan yaratilgan. Uning bizgacha yetib kelgan oz sonli asarlari ichida Gerodot, Pifokl, Menekeyga yozgan maktublari ham saqlanib qolgan. Yunon faylasufining Menekeyga yozgan maktubi yaqinda o‘zbek tiliga tarjima qilindi.<sup>14</sup> Shuningdek, Mark Tulliy Sitseronning “Xatlar”i, Lutsiy Anney Senekaning “Lutsiliyaga nasihat-maktublar”i, Platonning maktublari ham mashhur. Epistolyar badiiy janrlarning asosi o‘laroq xizmat qilgani hamda badiiyat unsurlaridan xoli emasligiga qaramasdan, ularni tom ma‘nodagi badiiy asarlar deya olmaymiz. Tadqiqotchilarning fikriga ko‘ra, faqatgina Senekaning “Lutsiliyaga nasihat-maktublar”i badiiy adabiyotga yaqinligi bilan ajralib turadi.

Adabiyotshunoslikda epistolyar roman genezisiga oid ikki xil qarash mavjud. Birinchi qarash tarafdorlariga ko‘ra, epistolyar roman hayotiy yozishmalar asosida paydo bo‘lgan. Ikkinchi qarashga ko‘ra, epistolyar roman Uyg‘onish davridan keyingi barokko davri romanlaridagi kiritma maktublar zaminida kelib chiqqan. Bizningcha, muloqotning muhim shakli bo‘lgan maktublar dastlab turli badiiy asarlar tarkibiga kiritilgan, keyin sof epistolyar asarlar paydo bo‘lgan.

Xat – ijtimoiy-siyosiy hayotda ham, shaxsiy hayotda ham g‘oyatda muhim hodisa ekanligi va hukmdorlar o‘rtasidagi siyosiy yoki diplomatik maktublar butun-butun xalqlar, davlatlar hayotida muayyan rol o‘ynaganligi xususida fikr yuritilgan. San‘at va madaniyat vakillari o‘rtasidagi maktublarda muhim ilmiy, ma‘naviy-ma‘rifiy masalalar o‘rtaga tashlangan va hal etilgan. Shaxsiy maktublar esa odamlar o‘rtasidagi do‘stlik, mehr-oqibat, sadoqat in‘ikosidir. Hayotda uchraydigan mana shu xat turlarining barchasi badiiy adabiyotga olib kirilgan. Professor N.Rahmonovning yozishicha, miloddan oldingi III asrda Markaziy Osiyoda hukmdorlik qilgan Botir Tangriqutning Xitoy malikasiga yozgan maktublari va malikaning Botir Tangriqutga yozgan maktublari ma‘lum. Olim yozadiki: “Noma eski o‘zbek tilida bildirgulik so‘zi bilan ham ifodalangan. “O‘g‘uznoma” dostonida O‘g‘uz xoqon barcha ellarning hukmdorlariga bildirgulik, ya‘ni noma yuborib, bo‘ysunishni va o‘lpon to‘lashni talab etadi. Shu tariqa ma‘lum ehtiyojlar tufayli paydo bo‘lgan xabarni ifodalash shakllari ham noma(janri – O.B.)ning shakllanishiga asos bo‘lgan bo‘lishi mumkin”.<sup>15</sup>

<sup>13</sup> Ўзбек мумтоз адабиёт намуналари. II жилд. ( XIV – XV аср бошлари). Тузувчи, изоҳ ва шарҳлар муаллифи: филология фанлари доктори, профессор Насимхон Раҳмон. – Т., Фан, 2007. – 94-б.

<sup>14</sup> Эпикур. Менекейга мактуб. Хуршид Ахмедов таржимаси // “Тафаккур” журналы, 2019 йил, 1-сон.

<sup>15</sup> Ўзбек мумтоз адабиёти намуналари. II жилд (XIV — XV асрнинг бошлари). Тузувчи, изоҳ ва шарҳлар муаллифи: филология фанлари доктори, профессор Насимхон Раҳмон. – Т.: ЎЗР ФА “ФАН” нашриёти, 2007. – 94-б.

Xuddi shunday qarash boshqa adabiyotshunoslarda ham bor<sup>16</sup>. D.Urnovga ko‘ra, epistolyar badiiy adabiyot hayotiy maktublar asosida shakllangan, bunda xabar mazmuni – hikoyaga, maktub yozuvchilar – adabiy qahramonlarga aylangan, xat adabiy shartlilikka muvofiqlashtirilgan. Maktublar yozuv paydo bo‘lgan davrlardan oldin ham amalda bo‘lganini yuqoridagi faslda aytib o‘tgan edik. Bunday ashyoviy maktublar yozuv paydo bo‘lgandan keyin ham qo‘llangan, ramziy xarakterga ega bo‘lgan. Alisher Navoiyning “Saddi Iskandariy” dostonida ham shunday voqea hikoya qilinadi. Dunyoni o‘ziga bo‘ysundirgan dovrudor fors hukmdori Doro soliq to‘lashdan bosh tortgan Iskandarga elchilar vositasida chavgon bilan go‘y (uchi egri uzun tayoq va yog‘och to‘p) va yana bir xalta kunjut jo‘natadi. Bu bilan u “Iskandar hali yosh bola, chavgon bilan to‘p o‘ynab yursin, agar urushmoqchi bo‘lsa, mening askarlarim mana shu kunjut donalari kabi behisobdir” demoqchi bo‘ladi. Iskandarni nazar-pisand qilmay, unga tahdid qiladi. Iskandar esa ularni o‘zicha talqin qilib, “go‘y – yer shari kabi yumaloqdir, demak, Doro menga yer yuzi hukmronligini topshiryapti. Men endi ot choptirib, butun yer yuzida chavgon urib, go‘y o‘ynayman. Mening askarlarim qushdirlar, bu kunjut esa ularning yemishidir” deya javob qaytaradi. Aslida o‘sha ashyolar vositasida Doro elchisi orqali maktub yuborgan. U paytlarda yozuv bo‘lmagan deb o‘ylash ham xato; chunki xuddi shu asarning o‘zida Iskandar o‘limi oldidan onasiga maktub yozib qoldiradi. Albatta, tarixda shu xil ramziy-ashyoviy maktublar ham bo‘lgan va Alisher Navoiy hayotiy shu hodisani badiiy matn sathiga olib kirgan.

O‘zbek zamonaviy nasrida faqat maktubga asoslangan epistolyar janr namunalari ham yaratildi. Bu sirada M.Qoriyevning “Oydin kechalar”, A.Ibrohimovning “Uyqu kelmas kechalar”, X.Do‘stmuhammadning “Hijronim mingdir mening”, B.Muhammadning “Yobondan gulxonaga maktublar” asarlarini sanab o‘tish mumkin. Bu asarlarning barchasi o‘zbek nomachiligi va jahon adabiyotida bo‘lgani kabi ishqiy maktub yoki yozishmalardan iborat.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Epistolyar romanda voqelikni badiiy tasvirlash imkoniyatlari”** deb nomlangan. Mazkur bobning “Epistolyar romanda tarixiy-ijtimoiy voqelik tasvirining o‘ziga xosligi” deb nomlanuvchi birinchi faslida “Yosh Verterning iztiroblari” romani sentimental-ishqiy xarakterda ekanligi bayon etilgan. Dastlabki qarashda ortiq darajada hissiyotchan, ijodkor tabiatli yosh Verter sevgidagi omadsizlik tufayli o‘z joniga qasd qiladi. Ammo bosh qahramon fojiasini faqat muhabbat motivi bilan bog‘lab qo‘ysak, asarning g‘oyaviy-badiiy qimmatini ancha tushirib qo‘ygan bo‘lamiz. Voqealar rivojlanib borar ekan, yosh Verterning o‘zi yashayotgan ijtimoiy muhit bilan ziddiyatda ekanligining guvohi bo‘lamiz. Ilk maktublar o‘quvchini Verterning insoniy tabiati bilan tanishtiradi. To‘rtinchi maktubdan boshlab esa ijtimoiy muhit chizgilari ham bera boriladi. Verter o‘zi kelib joylashgan shaharcha manzaralari, u yerdagi hayot tartibi bilan tanishtirar ekan, o‘zining jamiyatga oid kuzatish va xulosalarini ham bayon qila boradi. “Leute von einigem Stande werden sich immer in kalter Entfernung vom gemeinen Volke halten, als glaubten sie durch Annäherung zu verlieren”<sup>17</sup>

<sup>16</sup> Соколянский М. Эпистолярный роман // Литературные термины. – Коломна, 1999. – Стр. 119-120; Урнов Д. Эпистолярная литература // Краткая литературная энциклопедия. Том 8. – Москва, 1975. – Стр. 918.

<sup>17</sup> Johann Wolfgang von Goethe. Die Leiden des jungen Werther. 2019. Hamburger Lesehefte Verlag. S.8.

(“...jamiyatda ko‘zga ko‘ringan mavqeni egallagan kishilar go‘yo obro‘dan ayrilib qolishdan cho‘chigandek, oddiy fuqarodan o‘zini chetga tortadilar”)<sup>18</sup> deb yozadi u do‘stiga. Shu jumlaning o‘zidanoq Verter yashayotgan jamiyatdagi tabaqalanish darajasi ma’lum bo‘ladi. Aytish mumkinki, Gyote romanida tasvirlangan ijtimoiy-tarixiy voqelikning bosh muammosi (yoki ziddiyati desa ham bo‘ladi) tabaqalanishdir. Binobarin, 1771 yil 24 dekabrda yozilgan xatda “Was mich am meisten neckt, sind die fatalen bürgerlichen Verhältnisse. Zwar weiß ich so gut als einer, wie nötig der Unterschied der Stände ist, wie viel Vorteile er mir selbst verschafft”<sup>19</sup> (“Yaramas ijtimoiy munosabatlar, ayniqsa, jig‘imga tegyapti. Tabaqalarni farqlash qanchalik muhimligini, o‘zimga ham bu qanchalik foydali ekanligini boshqalardan kam bilmayman”)<sup>20</sup> deyiladi. Ayon bo‘ladiki, qahramon jamiyatning mavjud tartib-qoidalarini yaxshi bilan, zohiran uni inkor ham qilmaydi. Ammo hurlikka moyil ruhi va tiynati bu tengsizlikni qabul qilolmaydi, uni jon-jahdi bilan rad qiladi. Ich-ichdan bu tartibning g‘ayriinsoniy ekanini his qiladi.

Iqbol Mirzoning “Bonu” romani, yuqorida aytib o‘tilganidek, milliy tarixning muayyan davriga xos ijtimoiy voqelikni keng tasvirlashdan iborat g‘oyaviy-badiiy maqsadda yozilgan. Adib buning uchun yosh ayol Bonuni bosh qahramon sifatida tanlaydi. “Bonu” romani epistolyar shaklda yozilgan bo‘lsa-da, ko‘proq odatdagi epik prozani esga soladi. Chunki unda voqealar shu darajada batafsil, kichik-kichik tafsilotlari bilan, dialoglar ham to‘liq-to‘liq beriladi. Roman oilaviy-maishiy hayot sahnalari, Bonuning xotiralari, muhabbat iztiroblari, oilasidagilar bilan katta-kichik to‘qnashuvlari tasviridan boshlanganadi-yu, Bonu hayoti fonida millat hayotining katta ijtimoiy voqealari tasviriga o‘tiladi. Adib bir ayol kechmishlari fonida millat hayotining katta tarixiy davrini, shu davrning muhim ijtimoiy voqealarini badiiy tafakkur sathiga olib kiradi.

Ikkinchi bobning “Yosh Verterning iztiroblari” va “Bonu” romanlarida muhabbat, yolg‘izlik va xudkushlik motivi” deb nomlanuvchi ikkinchi faslida muhabbat, yolg‘izlik va xudkushlik motivi epistolyar romanlarning ko‘pchiligida markaziy o‘rin tutadi. Epistolyar janrning sentimental xarakteri, unda voqealarning “men” tilidan hikoya qilinishi mazkur uchala motivning chuqur, asosli ochilishiga xizmat qiladi.

Muhabbat motivi “Yosh Verterning iztiroblari” romani markazida turadigani emas, balki asarning yaratilishi zaminida ham mana shu yuksak insoniy tuyg‘u yotadi. Gyoteshunoslikda qayta-qayta ta’kidlanganidek, 25 yoshli adib o‘z boshidan kechirgan ishq savdosini do‘stining baxtsiz kechmishi bilan uyg‘unlashtiradi. Ayni vaqtda ta’kidlash lozimki, Gyote romani nemis va umuman Yevropa sentimentalizmining yuksak namunasi sifatida ham insonning eng oliy tuyg‘usini asar markazga qo‘ydi. Aynan sentimentalizm “Yosh Verterning iztiroblari”da ham muhabbat va yolg‘izlik motivlarini oldingi planga olib chiqdi va bu ikkalasi pirovardida qahramonni xudkushlikka olib boradi. Gyote romani

---

<sup>18</sup> Гёте Й.В. Ёш Вертернинг изтироблари. Немис тилидан Янглиш Эгамова таржимаси. – Т., “Sharq” нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси Бош тахририяти, 2013. – 14-б.

<sup>19</sup> Diese Quelle. S.53.

<sup>20</sup> Ўша манба, 81-б.

syujeti muhabbat intrigalari asosiga qurilgan. Fabula hayotiy voqelikka asoslansada, unda jahonga mashhur an'anaviy ishq qissalariga o'xshashlik bor. Bu "sevgi uchburchagi"da raqib – Albert ham Lottaga munosib yigit, buni Verterning o'zi ham tan oladi. Ammo faqat tashqaridan qaragandagina shunday. Aslida Verter va Lottani birlashtirgan ruhiy yaqinlik Albert va Lotta o'rtasida yo'q. Albert xarakteriga xos bo'lgan sovuq pragmatizm, zerikarli hisob-kitoblar, his-tuyg'u va ehtirosni nazarga ilmaslik shundan dalolat beradi. Albert va Verterning ikki xil odam ekani, ayniqsa, xudkushlik bahsidagi suhbatda yaqqol namoyon bo'ladi.

"Bonu" – sentimental roman emas, realistik uslubda yozilgan. Bu romanda muhabbat motivi markaziy o'rin tutmasada, voqealar rivojida muhim rol o'ynaydi. Unda ham javobsiz muhabbat qalamga olingan, biroq an'anaviy uchlik yo'q. Bonu avval boshdayoq manfaatni ko'zlab oshiq roliga kirgan va qizning sof insoniy tuyg'ularini suiiste'mol qilgan aferistga duch keladi. Yigit chirkin maqsadlari va o'lik qalbi bilan qizning tirnog'iga ham arzimaydi, ammo paradoks shundaki – iflos basharasi batamom ochilgandan keyin ham Bonu uni sevishdav davom etadi.

Muhabbat motivi tasvirida har ikki romanda ham sharqona ruh ufurib turadi. Verter 18 iyulda yozgan xatida: "Man erzählt von dem Bononischen Steine, daß er, wenn man ihn in die Sonne legt, ihre Strahlen anzieht und eine Weile bei Nacht leuchtet. So war mir's mit dem Burschen. Das Gefühl, das ihre Augen auf seinem Gesichte, seinen Backen, seinen Rockknöpfen und dem Kragen am Surtout geruht hatten, machte mir das alles so heilig, so wert! Ich hätte in dem Augenblick den Jungen nicht um tausend Taler gegeben. Es war mir so wohl in seiner Gegenwart. - bewahre dich Gott, daß du darüber lachest."<sup>21</sup> ("Aytishlaricha bonon toshini oftobga qo'ysa, u quyosh nurlarini o'ziga yutarmish, keyin ancha vaqtgacha qorong'ulikni yoritib turarmish. Xizmatkorim ham nazarimda shunday edi. Lottaning nazari uning yuz-ko'zlariga, livreya(xizmatkorlar kiyimi)sining tugmalariga, plashining yoqasiga tushgan, degan tuyg'u men uchun shunday muqaddas va qimmatli ediki! Shu daqiqada xizmatkorimni ming talerga ham almashtirmagan bo'lardim. Uning huzurida o'ltirish ulkan baxt edi. Xudoyo, sen bundan kulma!")<sup>22</sup> Sharq mumtoz adabiyotida ta'riflangan oshiqlar yor itining oyoqlarini o'padi, yor ostonasining tuprog'ini ko'ziga suradi, yorning iti o'rnida bo'lgisi keladi. Hazrat Navoiy ham bir g'azalda "Ishq ichra aning fidosi yuz jon, Har jonki anga fido bo'lubtur" (ya'ni yorga fido bo'lgan odamga yuzta jonim fido bo'lsin) deb yozadilar. Xizmatkorini yuz talerga almashmayotgan Verter o'sha afsonaviy sharqona oshiqlarni eslatadi.

Xuddi shunday kayfiyat Bonuga ham xos. U ham zolim, sitamkor; mehru muhabbat, vafo, sadoqat, hamiyat kabi insoniy tuyg'ulardan mahrum ma'shuqa ostonasidan itday haydab yuborsa ham, sevganidan voz kechmaydigan sharq oshiqlari kabi Olmosdan ko'ngil uzolmaydi. Verter "bizga muhabbatsiz hayotning nima keragi bor?", "dunyoda muhabbatgina kishini aziz qiladi" kabi so'zlari bilan esa so'fiy-oshiqlarga o'xshaydi. Verterning ishq tufayli zaiflashib, pirovardida

<sup>21</sup> Johann Wolfgang von Goethe. Die Leiden des jungen Werther. 2019. Hamburger Lesehefte Verlag. S.33

<sup>22</sup> Гёте Й.В. Ёш Вертернинг изтироблари. Немис тилидан Янглиш Эгамова таржимаси. – Т., "Sharq" нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси Бош тахририяти, 2013. - 51-б.

o‘zini o‘limga mahkum qilishi ham Majnunni, boshini toshlarga urib o‘zini halok qilgan Farhodni tasavvurga keltiradi. Umuman, ishq, oshiqlik xususidagi mulohazalar, hissiyotlarning sharqona g‘azal ruhidagi ifodasi, qahramon muhabbatining nihoyatda otashinligi Sharq mumtoz adabiyotiga monand. Xullas, keyinchalik “Mashriq va Mag‘rib devoni”ni yaratgan Gyotening 25 yoshda yaratgan romanida ham sharq ruhi ufurib turadi. Iqbol Mirzo esa Sharq adabiyotining bevosita vorisi sifatida realistik romanda muhabbat motivini o‘ta romantiklashtirib yuboradi.

Psixologiyada ikki holat farqlanadi: uzlat va yolg‘izlik. Odam ba‘zan yolg‘iz qolgisi keladi. Yoki ayrimlar umuman gavjum joylarni, odamlar orasida bo‘lishni yoqtirmaydi. Bunday odamlar uzlatga chekinib, o‘z xayollari bilan bo‘ladi, kitoblar va tabiat bilan muloqotda bo‘ladi. Ruhshunoslarga ko‘ra bu – uzlatdir. Yolg‘izlik esa boshqa hodisa. Oilasi, ish joyi, yaqinlari bo‘la turib ham odam yolg‘iz bo‘lishi mumkin. Bunda o‘sha odamni boshqalar tushunmaydi, nuqtai nazari ko‘pchiliknikiga to‘g‘ri kelmaydi. Bunday odam suhbatdosh topa olmaydi, uni tushunmaganlari bois fikr-tuyg‘ulari, dardlarini birov bilan bo‘lisha olmaydi.

Bizning tadqiqot obyektimiz bo‘lgan romanlardan biri sentimentalizmning tugashi, romantizmning boshlanishi chorrahasida yaratilgan, ikkinchisi esa sof realistik asardir. Shunga ko‘ra, bu ikki romanda yolg‘izlik motivi o‘ziga xos tarzda namoyon bo‘ladi.

Ikkinchi bobning “Epistoliar romanda badiiy xronotop” deb nomlanuvchi faslida esa makon va zamon inson hayotining muhim atributi hisoblanadi. Insoniyat ongini tanigan davrdanoq makon va zamonga befarq bo‘lmagan. Juda qadim zamonlardan o‘z hayotini ilohiy kitoblarda kelgan ko‘rsatmalar asosida tuzgan odamzod makon va zamoni ikkiga ajratgan: zaminiy makon-zamon hamda ilohiy makon-zamon. Bu tasavvurlar keyinchalik san‘at va adabiyotda ham aks etdi. XX asrning boshlarida esa atoqli olim M.Baxtin tomonidan badiiy adabiyotning butun tajribasini umumlashtirish asosida badiiy xronotop nazariyasi yaratildi. Mazkur muammo keyingi yillarda o‘zbek adabiyotshunosligida ham keng miqyoslarda o‘rganildi.<sup>23</sup>

Dastlabki qarashda bu xil asarlarda vaqt juda aniq bo‘lib ko‘rinadi. “Yosh Verterning iztiroblari” romani Verterning 1771 yil 4 maydan 1772 yil 6 dekabrgacha yozgan xatlari va noshirning kitobxonga hikoya qilib bergan shundan

---

<sup>23</sup> Шодиев Н. Горизонты эпоса. – Ташкент: Изд-во лит. и искусства, 1986; Абуталиева Э. Пространства и время в русскоязычной прозе Средней Азии (на материале творчества Тимура Пулатова и Тимура Зульфиконова): Дисс. ...канд. филол.наук. –Т.: 1993; Ғаниев И. Фитрат драмалари поэтикаси: Филол. фан. ... док. дисс. –Т.: 1998;. Қодиров К. Ўзбек сеҳрли эртақларида замон ва макон талқини. Филол. фан. ном. дисс. автореферати. –Т.: 2004; Каримов Б. Абдулла Қодирий: танқид, таҳлил ва талқин. – Т.: Ған, 2006; Тўйчиев А. Ўзбек романларида макон ва замон. –Т.: Мумтоз сўз, 2009; Умарова М. Тарихий драмада бадий вақт концепцияси: Фил. фан. ном. ...дисс. –Т.: 2011; Шодиев Н., Тўраева Б. Тарихий вақт ва унинг системаси. – Тошкент: Ған ва технология наشريоти, 2012; Тўраев Д. Рангин тасвирлар жилоси. –Т.: Академнашр, 2014; Назаров Ў. Романда бадий хронотопнинг ўзига хослиги. – Т.: Турон замин зиё, 2014; Тўраев Д. Маънавий олам талқинлари. –Т.: Академнашр, 2020; Жўрақулов У. Назарий поэтика масалалари: Муаллиф. Жанр. Хронотоп. Илмий-назарий тадқиқотлар, адабий-танқидий мақолалар. –Т.: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2015; Жўрақулов У. Алишер Навоий “Хамса”сида хронотоп поэтикаси: Филол. фан. док. ...дисс. – Т.: 2017; Насиров А. Одил Ёқубов романлари поэтикаси: Фил. фан. д-ри. (DSc)...дисс. – Самарқанд, 2018; Тўраева Б. Тарихий романларда бадий замон муаммоси: Фил. фан. бўйича фалсафа д-ри (PhD) дисс. –Т.: 2018.

keyingi bir necha kun voqealaridan iborat. Asar voqealari o'n yetti oydan kamroq vaqt davomida Germaniyaning kichkina shaharchalarida bo'lib o'tadi. "Bonu"dagi xatlar esa 4 avgustdan 31 maygacha – o'n oy oralig'ida yozilgan. Voqealar esa Bonuning bolaligidan boshlanib, so'nggi maktub yozilgan 31 maygacha davom etadi. YA'ni folklor asarlarida bo'lgani singari qahramonning tug'ilishidan boshlanadi, qahramonning qariyb butun umrlik sarguzashtlarini qamrab oladi va o'z hayotiga nuqta qo'yish istagi bilan tugaydi. Ammo bu xatlar o'n yetti yoki o'n oydan ko'proq vaqt voqealarini qamrab oladi. Bunda "Asrga tatigulik kun" romanidagi singari vaqt ichma-ichligining, vaqt sig'imi kengayishining guvohi bo'lamiz. YA'ni "Yosh Verterning iztiroblari" romani fabulasini tashkil qilgan voqealar 1771 yil mayning boshidan 1772 yil dekabr oxirigacha davom etadi. Aslida esa badiiy zamon-vaqt bu ikki romanda juda murakkab.

"Bonu" romani bir qancha zamon va makonlarni qamrab oladi. Boboning hovlisi, avliyo ziyoratgohi joylashgan sahro, rus o'rmonlari kabi mikromakonlar chuqur ramziy ma'no tashiydi. Biri asriy ma'naviy qadriyatlarni, ikkinchisi esa jamiyatga sig'magan darveshona hurfikrlilikni, uchinchisi esa adashishni tamsil qiladi. Bu makonlarning bari sharqona qadriyatlar ruhida o'sgan o'quvchi tasavvurida folklor qahramonlari oldidagi uch yo'lni yoki tasavvuf vodiylarini eslatadi. Bonu makon o'zgarishi, vaqt o'tishi bilan ma'naviy-ruhiy jihatdan o'sib, barkamollashib boradi; umuman, bu – romanda qahramonning folklordagi kabi butun hayoti qamrab olingani bilan ham bog'liq. Ammo bu o'sish pirovardida paradoksal ravishda qahramonga halokat keltiradi.

